

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 144 (1743), 2026-yil 17-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



MAHALLALARDA AHOLI FAROVON YASHASHI, “YETTILIK”NING HAR BIR VAKILI MAS’ULIYATLI VA TASHABBUSKOR BO‘LISHI LOZIM

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 16-iyul kuni mahallalarga yangi muhit olib kirish hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini yangicha tashkil qilish bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari bu yil infratuzilmani yaxshilash, odamlar va tadbirkorlar uchun sharoit yaratish maqsadida tumanlarga o‘rtacha 250 milliard so‘mdan, mahallalarga esa 5,5 milliard so‘mdan mablag‘ berilganini ta’kidladi.

Tuman hokimlari va mahalla raislarining tushum bo‘yicha vakolatlari kengaytirilgani natijasida hududda qoladigan qo‘shimcha daromad 2 barobargacha ko‘paydi. Tumanlarda o‘rtacha 22 milliard so‘mdan qo‘shimcha mablag‘ qoldi, mahalla byudjetiga esa o‘rtacha 150-200 million so‘m tushdi.

— Lo‘nda aytganda, hududdagi masalalarni hal qilish uchun hokimda ham, mahalla raisida ham, umuman, “yettilik”ning har bir vakilida resurs va vakolat bor. Yetishmayotgan jihat — mas’uliyat va tashabbuskorlik, — dedi Prezidentimiz.

Tahlillar ayrim mahallalarda muammolar vaqtida hal etilmayotganini ko‘rsatmoqda. Shu yilning o‘zida Xalq qabulxonalari orqali 87 ta mahallaning har biridan 200 dan ortiq murojaat kelib tushgan.

Shuningdek, “Tashabbusli budget” dasturi doirasida bu yil 7,5 trillion so‘m ajratilgan bo‘lsa-da, 2 ming 136 ta mahallada birorta loyiha g‘olib chiqmagan. Kichik loyihalar uchun banklar tomonidan olti oyda 18,5 trillion so‘m resurs ajratilib, 110 mingta mikroloyiha amalga oshirilgan, 259 ming odam ishli bo‘lgan. Lekin 47 ta mahallada bor-yo‘g‘i 2 tadan mikroloyiha ishga tushirilgan.

Ayrim tumanlarda loyihalarga kambag‘al oilalarni jalb qilish darajasi pastligi, 960 ta kambag‘al oila yashaydigan 32 ta mahallada birorta ham ehtiyojmand odam doimiy ishga

joylashtirilmagani tanqid qilindi. Shuningdek, 883 ta mahallada bankirlar xonadonbay yurib, loyiha qilmagani, tadbirkorlar bilan uchrashmagani qayd etildi.

Shu sababli yil boshidan mahallada ishni to‘g‘ri tashkil qilmagan 152 nafar rahbar ishdan olingan, yana 700 nafariga intizomiy chora ko‘rilgan.

Yig‘ilishda mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash, aholi muammolarini hal etish va “yettilik” mas’uliyatini oshirish masalalari atroflicha muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari mahalla odamlar uchun chinakam ishonch, tayanch va imkoniyatlar markaziga aylanishi zarurligini ta’kidladi.

Yaqinda mahalla boshqaruvini samarali tashkil qilish bo‘yicha Prezident farmoni imzolandi. Unga ko‘ra, mahalla raisi ijtimoiy muammolarni qayd etuvchi shaxsdan o‘z hududining “iqtisodiy buyurtmachisi”ga aylanishi kerak.

Endi har bir mahalla raisi o‘z hududining iqtisodiy va ijtimoiy buyurtmasini shakllantiradi. Bunda muammo aniq hisob-kitob qilinadi, loyiha tayyorlanib, mas’ul tashkilotlarga vazifa qo‘yiladi. Mahallalarda xususiy bog‘cha, maktab, klinika va sport inshootlari qurish uchun yerni auksionga chiqarish vakolati ham mahalla raislariga beriladi.

Davlatimiz rahbari mahalla raisi ijtimoiy muammolarni hal qilish, tozalikni ta’minlash va daromadni ko‘paytirishga xizmat qiladigan loyihalarda tashabbuskor bo‘lishi zarurligini ta’kidladi.

Bunday loyihalar uchun “mahalla yettilik”lariga 10 million so‘mdan grant ajratiladi. Ushbu maqsadlar uchun jami 240 milliard so‘m resurs shakllantiriladi.

Mahalla raisi o‘z hududining haqiqiy boshqaruvchisi bo‘lishi shart. U hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim, profilaktika inspektori, soliqchi va mahalla bankirining haftalik hamda oylik ish rejasini tasdiqlab beradi, ularga aniq vazifa qo‘yib, so‘rov qilib boradi.

“Yettilik” faoliyatini metodik qo‘llab-quvvatlash va hududdagi muammolarga ilmiy yondashish uchun Mahallani rivojlantirish milliy instituti tashkil etiladi. U “yettilik”ni o‘qitadi, mahallalardagi dolzarb masalalarga ilmiy yechimlar ishlab chiqadi.

Yig‘ilishda mahalla bankirlarining ish uslubi ham tubdan o‘zgarishi belgilandi. Endi banklar har bir mahallaning “o‘sinh nuqtasi”ni aniqlab, tashabbuskorlarni topishi va daromadli loyihalarni ko‘paytirishi zarur. Bundan buyon bitta mahalla bankiriga ko‘pi bilan uchta mahalla biriktiriladi.

Mahalla bankirlari hududdagi bank mijozlari bilan ishlash, ish o‘rinlari va ularga qo‘yilgan talabni aniqlaydi. Mahalladagi ishsizlarni shu kasblarga o‘qitish uchun bandlik bo‘limiga buyurtma beradi va o‘qishni bitirganlarni ishga joylashtiradi.

Joriy yil oilaviy tadbirkorlik loyihalari uchun qo‘shimcha 2 trillion so‘m imtiyozli resurs berildi. “Og‘ir” mahallalar uchun kredit stavkasi 17,5 foizdan 12 foizga tushirildi. Endi mahalla bankirlari o‘zi topgan loyihasi uchun ushbu resursdan foydalanishi mumkin bo‘ladi.

Davlat banklari mahallalarni ixtisoslashtirish, “Agrostar” kompaniyalari bilan birga “yetishtirish — qayta ishlash — saqlash — qadoqlash — sotish” zanjirini

yaratish bo‘yicha ishlaydi. Bir oyda 1 mingta mahallada ish boshlash, har bir mahallada kamida 3 tadan “lokomotiv” loyihani amalga oshirish vazifasi qo‘yildi.

Mahallalar byudjetini mustahkamlash bo‘yicha ham yangi tashabbuslar ilgari surildi. Endilikda mahalladagi noturur obyektlardan tushgan yer va mulk solig‘ining 5 foizi ham mahallaning o‘ziga beriladi. Bu orqali mahallalar ixtiyorida yiliga yana 400 milliard so‘m mablag‘ qoladi.

Yil davomida eng ko‘p tadbirkorlarni ro‘yxatga olgan, eng ko‘p yangi ish o‘rni yaratgan, tushum darajasi eng yuqori bo‘lgan va eng ko‘p qo‘shimcha soliq bazasi topgan 200 ta mahallaga 2 milliard so‘mdan mukofot beriladi.

Umuman, yangi tashabbuslar hisobiga mahallalar byudjetiga tushum joriy yil 1 trillion 600 milliard so‘mga, kelasi yildan esa 2 trillion so‘mga yetadi.

Yurtimizda 2026-yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilingan. Shu asosda barcha sohalaradagi islohotlar natijasi, avvalo, mahallada va odamlarning kayfiyatida namoyon bo‘lishi kerakligi ta’kidlandi.

Bu yil Vatanimiz mustaqilligining 35 yilligi “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz” degan ezu g‘oya asosida keng nishonlanadi. Eng ulug‘, eng aziz bayramni mahallalarda ko‘tarinki ruhda o‘tkazish uchun “Mahallada obodlik va mehr-saxovat oyligi” e‘lon qilindi.

Mahallada obodonchilik ishlarini tashkil etish bo‘yicha Bosh vazir boshchiligidagi respublika shtabi tuziladi, hududiy shtablarga hokimlar rahbarlik qiladi.

Bu ishlar bir oylik aksiya emas, balki yil bo‘yi ishlaydigan umummilliy harakatga aylantirilishi zarurligi ta’kidlandi.

Mehnatga yarasha rag‘bat bo‘lishi uchun yil yakuni bilan ko‘p qavatli uylardagi “Eng orasta xonadon”, mahalladagi “Eng fayzli hovli”, hududdagi “Eng obod ko‘cha”, tuman va viloyatdagi “Eng namunali mahalla” nominatsiyalari joriy etiladi.

Tanlov g‘oliblari bo‘lgan ko‘p qavatli uylardagi kvartiralar uchun mol-mulk solig‘idan, hovli-joylar uchun esa yer solig‘idan imtiyoz beriladi. Yaxshi tajriba yaratgan “mahalla yettiligi” mukofotlanadi, ularning ish uslubi boshqa hududlarga namuna qilib ko‘rsatiladi.

— Mahalla — xalqqa eng yaqin boshqaruv bo‘g‘ini. Odamlarning kundalik masalalari shu yerning o‘zida, ortiqcha ovoragarchiliksiz hal bo‘lishi kerak, — dedi Prezidentimiz.

Hozir “yettilik” orqali 100 ga yaqin xizmat ko‘rsatilmoqda. Endi barcha davlat xizmatlari bosqichma-bosqich mahallaga tushiriladi.

Mahallalarda ijtimoiy yordamlar ko‘lamini kengaytirish masalasi ham muhokama qilindi. Joylarda ijtimoiy reyestrga kiritishni asossiz rad etish yoki sun‘iy ravishda reyestrdan chiqarish holatlari uchrayotgani tanqid qilindi.

Oqibatda ehtiyojmand oilalar ijtimoiy yordam olish, farzandini bog‘cha va to‘garakka berish kabi kafolatlangan xizmatlardan foydalana olmayapti. 184 ta mahallada bir oy ichida kelgan 2 ming arizaning barchasi asossiz rad qilingan. Shu sababli reyestrga kirish masalasida Prezidentga murojaatlar yil boshidan 1,5 barobar oshib, 30 mingdan 46 mingga ko‘paygan.

Bosh prokuraturaga ijtimoiy reyestrga to‘g‘ri yuritilishini qat‘iy nazorat qilish topshirildi. Yil yakunigacha nogironlikni erta aniqlash, xonadonlarni moslashtirish, ijtimoiy uyga joylashtirish kabi 25 turdagi xizmatni mahallaga tushirish vazifasi qo‘yildi.

Uch oyda demensiya va aqliy zaifligi bo‘lgan shaxslar uchun 250 ta mahallada kunduzgi va uyda parvarish xizmati hamda “Madad” uylari, 75 ta mahallada o‘zgalar parvarishiga muhtoj keksalar uchun “Faol hayot” dasturi, shuningdek, qarovsiz qolgan va to‘ravonlikka uchragan bolalar uchun qo‘llab-quvvatlash markazlari tashkil etiladi.

Mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash bo‘yicha yaratilgan tizim o‘z natijasini bermogda. So‘nggi uch yilda kriminogen vaziyati og‘ir bo‘lgan 1 ming 162 ta mahallaning 571 tasida bu yil birorta jinoyat sodir etilmadi.

Jumladan, videokameralar o‘rnatish, xavfsiz ko‘cha va yo‘laklar tashkil qilish, oilalarga psixologik yordam ko‘rsatish, ehtiyojmand, ishsiz va jinoyatga moyil aholi qatlami bilan manzilli ish olib borish natijasida “qizil” toifadagi ayrim mahallalarda jinoyat sodir etilmagan.

Jinoyatchilikni jilovlashga mas’ul ilmiy tashkilotlar bilan birga namunali mahallalar tajribasi asosida metodika ishlab chiqiladi. Yil davomida “qizil” va “sariq” toifadagi mahallalar profilaktika inspektorlari ushbu metodika bo‘yicha joyiga borib o‘qitiladi.

Yig‘ilish davomida mutasaddilarning axborotlari tinglandi, mahalla vakillari bilan muloqot qilindi.

O‘ZA

Xorijlik suhbatdosh

“BUGUNGI O‘ZBEKISTONNI KECHAGISI BILAN TAQQOSLASAK, MISLSIZ O‘ZGARISHLAR YUZ BERAYOTGANINI KO‘RAMIZ”

O‘zbekiston bozoriga birinchilardan bo‘lib kirib kelgan “Holley Group” kompaniyasi asoschisi va direktorlar kengashi raisi Van Licheng bilan suhbat

O‘zbekiston keyingi yillarda investorlar uchun eng jozibador mamlakatlardan biriga aylandi. Xorijlik sarmoyadorlarning yurtimiz taraqqiyoti, rivojlanish sur‘ati, barcha sohalarida yaqqol ko‘zga tashlanayotgan o‘sinh ko‘rsatkichlari, asosiysi, oxirgi o‘n yilda yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhitiga ishonchi baland. Investorlar uchun taqdim etilayotgan sharoitlar, imkoniyat va imtiyozlar esa ularni yanada ko‘proq chorlamogda.

Joriy yil iyun oyida bo‘lib o‘tgan beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi buni yana bir bor isbotladi. Dunyo-niing yuzdan ortiq davlatidan minglab ishtirokchi qatnashgan yirik anjumanda umumiy qiymati 43,1 milliard dollarlik loyihalar imzolandi.

Investor biror loyihaga mablag‘ kiritishi uchun manfaatdorlikni ko‘ra bilishi, istiqbolga ishonishi kerak. Xorijlik ishbilarmonlar bilan suhbatlashangiz,

ularda aynan mana shu ishonch yuqori ekani ko‘rinmoqda

Shu bois, jahonning nufuzli kompaniyalari O‘zbekistonga nafaqat yirik sarmoyalar kiritaypti, balki uzoq muddatli hamkorlikka intilmogda. Investitsion loyihalar esa yurtimizning eng chekka hududlarigacha kirib boryapti.

Mamlakatimizning uzoq yillik investor hamkorlari orasida Xitoy kompaniyalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Jumladan,

“Holley technology” korxonasi O‘zbekiston bozoriga birinchilardan bo‘lib kirib kelgan. Bugunga qadar ko‘plab loyihalarni amalga oshirdi. Elektr hisoblagichlar hamda transformatorlar ishlab chiqarish zavodi shular jumlasidan.

Kompaniya taklifi bilan O‘zbekiston delegatsiyasi Xanchijouda bo‘lib, “Holley technology” korxonasi faoliyati bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shu fursatdan foydalanib, “Holley Group” kompaniyasi asoschisi va direktorlar kengashi raisi Van Licheng bilan O‘zbekistonga sarmoya kiritishdan maqsadi, loyihalar istiqboliga ishonchi, mamlakatimizdagi investitsiya muhitiga munosabati to‘g‘risida suhbatlashdik.

Davomi 3-betda

10 MILLION TONNALIK RIZQ, BARAKA XIRMONI

xalqimiz dasturxonini to‘kin qilmoqda

Zamon o‘zgardi, odamlar o‘zgardi va tabiiyki, shunga yarasha talab va ehtiyojlar ham keskin o‘zgardi. Endi fermerga faqat mahsulot yetishtiruvchi sifatida emas, balki mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlovchi, eksport salohiyatini yuksaltiruvchi hamda qishloq aholisi bandligini ta’minlaydigan asosiy iqtisodiy kuch sifatida qaralmoqda. Shu bois, davlat tomonidan ularni qo‘llab-quvvatlashning mutlaqo yangi moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari joriy etilmoqda.

Keyingi yillarda paxta va g‘alla yetishtirish tizimida davlat buyurtmasi asosida ishlash amaliyotidan bosqichma-bosqich voz kechilib, bozor tamoyillariga asoslangan munosabatlar shakllantirildi. Bu esa fermerlarga yetishtirgan mahsulotlarni erkin realizatsiya qilish, o‘z

daromadini mustaqil boshqarish va iqtisodiy manfaatdorligini yanada oshirish imkonini yaratdi. Eslang, avvallari shunday yengillik, imkoniyatlarga yo‘l ochiqmidi? Afsuski, yo‘q.

2020-yildan boshlab boshqoli don yetishtirishda davlat buyurtmasi bekor



Taraqqiyot odimlari



Davomi 4-betda

2026-yil 17-iyul, 144-son



YASHASHGA ISHTIYOQ, MEHNATGA MUHABBAT VA KELAJAKKA ISHONCH UYGʻOTGAN ISLOHOTLAR

Oʻn yil oldin ham shahar bilan qishloq orasida yer bilan osmon qadar tafovut bor edi. Qishloq manzarasi ham doim bir xil boʻlgan. Qishloq deganda pastqam uylar, tor koʻchalar, daladan beri kelmaydigan kishilar koʻz oldimizga kelardi. Shu bois, imkon topganlar shaharda yashashga oshiqardi. Uyning qishda issiq, yozda salqin boʻlishi, maktab, bogʻcha, tibbiy xizmat, ishlab chiqarish, savdo va boshqa xizmat koʻrsatish tarmoqlari yaqinligi qishloq ahlining havasini keltirardi. Chunki qishloqda kundalik hayot tarzi uchun bunday imkoniyat yoʻq edi.

Keyingi oʻn yillikda inson qadriini ulugʻlash yoʻlida oʻtkazilayotgan islohotlar tufayli uzoq-yaqin qishloqlar, mahallalarning meʼmoriy qiyofasi butkul oʻzgardi, aholi hayot tarzi uchun zarur shart-sharoit yaratildi. Buni Fargʻonaning olis va yaqin qishloqlari misolida ham koʻrish mumkin.

Quva tumanidagi Qagir mahallasi endi “Yangi Quva” nomi bilan atalmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Mazkur mahalla bir yil avval “ogʻir” toifaga kiritilgan edi. Hudduda sugʻorish tizimi, elektr taʼminoti, yoʻl infratuzilmasi, uy-joy, savdo va xizmat koʻrsatish bilan bogʻliq koʻplab muammolar yillar davomida yechimini kutib turardi. Mahallaga islohotlar boshlangan paytda ham borgan edi. Oʻshanda toʻpiqqa uradigan tuproq yoʻlda bazoʻr qadam bosganimiz kechagidek esimda. Yangilanishlar shiddati sabab qishloq qiyofasi qisqa muddatda butkul oʻzgardi.

Prezidentimizning “Respublika hududlarini jadal kompleks rivojlantirish uchun tanlab olingan tuman (shahar)larda amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish toʻgʻrisida”gi qarori ijrosi doirasida mahalla uchun mablagʻ ajratilib, bir qancha ishlar bajarildi. Natijada pastqam uylar, tor koʻchalar oʻrniga yangi mahalla binosi, kutubxona,

asosiy drayveri — gulchilik, koʻchatchilik. Hozir 450 xonadon tomorqasida gul, 250 tasida daraxt koʻchatlari yetishtiriladi. Shuningdek, 100 ta xonadonda issiqxona bor. Odamlar halol mehnat orqali daromad topmoqda.

— Oʻtgan yili bu yoʻnalishda 50 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi. Natijada 380 ta ish oʻrni ochilgan, — deydi mahalla fuqarolar yigʻini raisi Qobiljon Yusupov. — Yil boshidan beri 7 ta mikroloyiha ishga tushirilib, 50 dan ortiq odam ishli boʻldi. Hozir 125 ta tadbirkorlik subyekti aholiga xizmat koʻrsatyapti.

Toʻlqinjon Dehqonov atirgul yetishtirishda oʻziga xos tajriba toʻplagan. Uning tomorqasida 5 sotixli issiqxona tashkil etilgan. Bu yerda 5000 tup atirgul koʻchati ekilgan. Bir tup gul gʻunchasi 5000 soʻmdan sotilmoqda. Tomorqachining hisob-kitobiga koʻra, bu yil gulchilikdan 200 million soʻm daromad kutmoqda. Issiqxonaga tomchilatib sugʻorish tizimi oʻrnatilgan. Bu usul suvni tejash, mineral oʻgʻitning toʻgʻri ildizga yetib borib, unumdorlikni oshirishda samara beryapti. Tashqarida 35-40 daraja issiq boʻlsa ham issiqxonada havoni moʻtadil saqlaydigan qurilmalar oʻrnatilgan.

— Yetimish yoshga kirdim, — deydi turfa gullar oralab yurgan Toʻlqinjon aka. — Imkon topsam, gulzorini aylanaman. Turfa rang-

qad koʻtargan koʻp qavatli uylarga qarab, gʻururlanaman. Qishda issiq, yozda salqin. Chekka qishloqlarda ham zamonaviy va koʻrkam koʻp qavatli uylar qursa boʻlarkan-ku.

Mirishkor tomorqachining issiqxonada gul yetishtirish borasidagi tajribasi boshqa hududlarda ham ommalashyapti. Hozir tumandagi 7 gektar yerda yangi texnologiya asosida atirgul yetishtirilaypti.

Mahalladagi “TVS-TEXGROUP” tikuvchilik fabrikasi yana bir oʻziga xos loyiha boʻldi. Joriy yil avvalida ish boshlagan korxonaga belaruslik investor 500 ming dollar sarmoya kiritdi. Tadbirkor yillar davomida qarovsiz qolgan binoni auktsion savdosida yutib olib, zamonaviy ishlab chiqarish korxonasiga aylantirdi. Bu yerda mahallaning 100 dan ziyod xotin-qizi mehnat qilyapti. Korxona mahsulotlarining asosiy qismi shu yerning oʻzidan Belarusga eksport qilinmoqda.

Mahallamizda ishsiz xotin-qizlar qolmadi, desam, muholaga boʻlmaydi, — deydi mahalladagi xotin-qizlar faoli Sadoqatxon Haydamatova. — Fabrika huzurida ishchilar uchun ikki oylik malaka oshirish oʻquv kursi tashkil etildi. Bunda ijtimoiy himoya daftarlarida qayd etilgan fuqarolarga ustuvorlik berilgan. Ular hunar oʻrganish asnosida ishlab, maosh oladi. Bundan tashqari, “Ishga marhamat!” monomarkazlarida ham kasb-hunar oʻrgatilyapti. Har bir oila bilan xonadonbay ishlayotganimiz sababli mahallamiz ishsizlik, kambagʻallik, ajrashishlardan xoli hududga aylandi.

Tikuvchilik fabrikasining ishlab chiqarish koʻlami yil yakunigacha yana kengaytiriladi. Bu yana 100 ta yangi ish oʻrni degani. Natijada ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirib, eksport geografiasini ham kengaytirish imkoniy tugʻiladi. Birinchi chorakda umumiy qiymati 300 ming dollarlik mahsulot eksportga chiqarildi.

— Uyimizga yaqin joyda ishga tushirilgan korxona hayotimda yangi imkoniyat eshklarini ochdi, — deydi Nasibaxon Ristayeva. — Ishsizligim sabab “Ayollar dafatari”da turardim. Fabrika qurilgach, shu yerda hunar oʻrganib, ishlashga taklif qilindim. Ikkanamay rozi boʻldim. Keng va yorugʻ xonalar, zamonaviy texnologiyalarda ishlashning zavqi oʻzgacha boʻlarkan. Maoshimizni vaqtda olyapmiz, bepul tushlik tashkil etilgan. Muhimi, oilamiz byudjetiga ozmi-koʻpmi koʻmak beryapman. Bitta ona uchun bundan ortiq yana nima kerak?!

Tinchlik-totuvlik boʻlgan joyda fayzu baraka, taraqqiyot boʻy koʻrsatadi. Bu hayotiy tamoyilga amal qilgan joyda qonun hamisha ustuvor. Mahalla hududida yangi huquq-tartibot maskani bunyod etilgach, jinoyat va huquqbuzarliklar oʻz-oʻzidan kamaydi. Maskanda alohida situatsion markaz tashkil etilgani jinoyatchilikning oldin olish borasidagi imkoniyatlarni kengaytirdi.

— Yangi Quva, Oʻzbek, Turk, Boyiston va Yangihoyat mahallalarini qamrab olgan holda xizmat qilamiz, — deydi bosh inspektor, kapitan Xolmatjon Xolmatov. — Shu kungacha ushbu mahallalar hududida 200 ga yaqin zamonaviy kuzatuv kamerasi oʻrnatilib, barchasi situatsion markazga integratsiya qilindi. Xavfsiz koʻcha, xavfsiz yoʻlaklar tashkil etildi. Profilaktika inspektorlari, patrul-post, yoʻl-patrul va qoʻriqlash xizmatlarining hamkorlikdagi faoliyati yoʻlga qoʻyilib, 3 smenalni navbatchilik tartibi joriy etilgan. Koʻchalarga yoritish chiroqlari, domofon va “tashvish tugmalari” oʻrnatilgan. Bularning barchasi odamlarga xotirjam, tinch-totuv yashash imkoniyatini beryapti. Mahallalarimizning barchasi “yashil” hudud sifatida eʼtirof etildi.

“Yangi Quva” mahalla fuqarolar yigʻinidagi hayotbaxsh ishlar eski qishloqqa yangi nafas, koʻtarinkilik, tashabbuskorlik ruhini olib kirdi. Buni koʻrkam imoratlar, gullarga burkangan koʻchalar, hayotga ishtiyoqmand sodda, samimiy kishilarning kundalik hayotida yaqqol koʻrish mumkin.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri
Sherzod Qoraboyev olgan suratlar.



Anchadan beri Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumani Chim mahallasida boshlangan yangilanishlar haqida eshitgan edik. Ha, endi odatdagi ishlar-da deb oʻylaganmiz. Yaqinda bir tanishim Chimdagi ishlarni alohida maqtab qoldi. Huddudagi bir qarich yer ham nazardan chetda qolmay, obod maskanga aylantirilayotir deyishganda, bu bir oz lofdek tuyuldi. Ming marta eshitgandan bir borib koʻrgan yaxshi, deya yoʻlga chiqdik.

ELNI BIRLASHTIRIB, YURTGA CHIROY BAGʻISHLAYOTGAN YANGILANISHLAR

Bunday paytda vohada jazirama avjiga chiqadi. Shu bois, kechga yaqin yoʻlga tushdik. Manzil Qarshi shahridan 30 chaqirimcha narida. Mahalla katta yoʻl yoqasida joylashgan. Bir tomonidan Shahrisabz — Qarshi, yana bir tomonidan Toshkent — Termiz avtomobil yoʻli oʻtgan.

Azaldan qishloq odamlari mehnatkash. Avvallari oʻzlari yetishtirgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini katta yoʻl yoqasiga chiqarib sotishardi. Bugun esa oʻsha paytdagi tartibsiz rastalar koʻrinmaydi. Oʻrmini zamonaviy doʻkonlar egallabdi. Katta yoʻl yoqasi chiroyli koʻrinishga keltirilgan...

Mahalla idorasiga kirib borganimda soat kechki besh boʻlib qolgand. Ish yakunlanib, hamma uy-uyiga ketib qoldimikan degan xayolga bordim. Xonalar eshiklarini tortib koʻrsam, hammasi yopiq. Vaqtim behuda ketadigan boʻldi, ertaroq kelsam boʻlarkan, deya oʻzimni koyigan boʻldim. Shu payt bir kishi raisni yoʻqlab keldi. U ham navbati bilan eshiklarni tortib koʻrdi. “Hozirgina shu yerda edi-ku”, deya qoʻliga telefonini oldi. Adashmasam raisning raqamini izladi. “Allo, rais bova. Men... Yaxshimisiz... Keluvdim, yoʻqsiz-ku?!” Qayga-qayga? Ha, boʻldi-boʻldi. Hozir boraman”.

Qisqa shubhatdan angladimki, rais yaqin atrofda. U kishining ortidan ergashdim. Biroz yurib hashar ustidan chiqdik... Uzun koʻcha. Bir tekis qilib, yugitidan voyish qilinibdi. Har uchtoʻrt metr oraligʻda tok ekilgan. Kamida oʻttiz-qirq odam ish bilan band. Kimdir toklarni sugʻoraypti, yana boshqalari yoʻl tekislayotir, soʻri ustunlarini boʻyashyapti va hokazo.

Hasharchilarning ishiga mahliyo boʻlib, raisni izlab ketayotgan kishini ham unutibman. Bir payt u kishining bir oz narida ketayotganiga koʻzim tushdi. Ortidan shoshdim. Besh-olti kishi bir-biriga hazil-huzul qilib suv yoʻlini tozalayapti. Xalqimizda azaldan bir odat bor: hashar ustidan chiqqan kishi, “Qoʻlim tegsin” deya oz boʻlsa-da ishga unnaydi. Hasharchilarning aksariyati shu qishloq odamlari ekan.

— Bu yil biz uchun omadli keldi. Koʻrib turganingizdek, mahallamizda katta ishlar boshlanib ketdi, — deydi chimlik ijodkor Temirpoʻlat Tillayev. — Butunlay yangi qiyofaga kiriyapti. Bir qarich yer eʼtibordan chetda qolgani yoʻq. Shunday paytda tomoshabin boʻlib oʻtirsak yarashmaydi. Deyarli har kuni qaysirdi hududni obod etish uchun hasharga chiqamiz. Bunga otaxonlar bosh boʻlyapti, ariqlarni tozalayapmiz. Tayyor boʻlgach, qurilish tashkilotlari kelib, beton qilib beradi. Boshqa koʻchalarda betonlash ishlari allaqachon boshlangan.

Bir payt toʻgʻridagi darvoza ochilib, qoʻlida kattagina idish koʻtargan ayol hasharchilar tomon kela boshladi. Ortidan nabirasi shekilli, olti yoshlardagi bola ikkita kosa koʻtarib olgan. Opa ishlayotganlarga salom berib, soyaga idishni qoʻydi. Nabirasi qoʻlidagi kosalariga ayron quyib, ishlayotganlarga uzata boshladi.

Muzdekkin ayronidan simirib, rosti issiq taftini ham unutib yubordim. Boshqalar ham chanqagan ekan, opaga rahmat aytdi. Sal narida oʻtirib, yoshlarga ish oʻrgatib turgan otaxon qoʻlini duoga ochdi. Qolganlar qoʻshildik. Yurt xotijamligi, oilalar farovonligi, hasharga hissa qoʻshayotgan har bir inson haqqiga yaxshi niyatlar qilindi.

Rais Sobir Irisboyev ham shu yerda ishga bosh boʻlib turgan ekan. U kishi bilan tanishib, maqsadimni tushuntirgan boʻldim. — Chim mahallasidagi islohotlar Prezidentimizning 2025-yildagi “Alohida tuman (shahar) va mahallalarni aholining yashashi va tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishi uchun namunali hududga aylantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori asosida olib borilyapti, — deydi Sobir Irisboyev. — Qamashi “Yangi Oʻzbekiston qiyofasidagi tumanlar” qatoriga kiritilgan. Chim esa yangi qiyofaga aylantiriluvchi mahallalar qatoridan joy olgan.

Osqoqolning taʼkidlashicha, ayni paytda Chim mahallasida 5200 dan ortiq aholi, 930 dan ortiq

xonadon, 1300 dan ziyod oila istiqomat qilyapti. Yaqin-yaqingacha mahallada bolalarni bogʻchaga qamrab olish muammo boʻlib kelgan. Chunki shu paytgacha hududda atigi bittagina bogʻcha boʻlib, uning sigʻimi ham kam boʻlgan. Aytishlaricha, bogʻchaning ilk binosi barpo etilganiga 70 yildan oshib ketdi.

— Bolalar soni koʻpligidan moslashtirilgan xonalardan foydalanishga majbur edik, — deydi 18-maktabgacha taʼlim tashkiloti rahbari Dilduza Shoxliyyeva. — Aslida, u bir paytlar xoʻjalik hasharchilari uchun qurilgan. Keyinchalik bogʻcha sifatida foydalana boshlangan. 2000-yillarga kelib, faoliyati butunlay toʻxtab, besh-olti yil umuman foydalanilmadi. Keyin qishloq faollari oʻzlari binoni taʼmirladi. Bino eski boʻlsa-da, boricha foydalana boshladik. Ammo qishda isitish, yozda jaziramadan

ishchilarga ulashaman. Baraka topishsin. Mahallamiz chiroyi ochgani sari koʻnglimiz ham ravshanlashyapti.

Otaxon aytganidek, mahallaning har bir koʻchasi yangilanmoqda. Hatto ayrim eski uylar buzilib, homiylar tomonidan yangisi qurib berilyapti. Xonadonlar zamonaviy koʻrinishga keltirilmoqda. Bundan tashqari hudud yoshlarini ish bilan taʼminlash uchun ham yangi loyihalar amalga oshirilyapti. Jumladan, ayni kunlarda eski, samarasiz 5 gektarlik bogʻ oʻrnida tomchilatib sugʻorish texnologiyasi asosida 26 ta, har biri 10 sotixdan iborat issiqxona tashkil etilayotir. Shuningdek, 100 tonna sigʻimga ega sovitkich ombori hamda 1 dona 250 kVt transformator podstantsiyasi oʻrnatilmoqda. Natijada 52 ta yangi ish oʻrni yaratiladi.



“Azaldan qishloq odamlari mehnatkash. Avvallari oʻzlari yetishtirgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini katta yoʻl yoqasiga chiqarib sotishardi. Bugun esa oʻsha paytdagi tartibsiz rastalar koʻrinmaydi. Oʻrinni zamonaviy doʻkonlar egallabdi. Katta yoʻl yoqasi chiroyli koʻrinishga keltirilgan...”

saqlanish muammo edi. Dardimizni biron eshitmasdi. Zoʻrgʻa kun oʻtkazardik. Shu holda ancha yil oʻtib ketdi. Toʻrt yil oldin qoʻshimcha bino qurib berildi. Lekin bu bilan mahalla bolalarini toʻliq qamrab olishga imkonimiz yetmadi. Masalani toʻliq hal etish uchun yangi bino qurilishi boshlandi.

Ayni paytda quruvchilar mazkur bogʻchaning poydevorini qoʻyish ishlarni yakuniga yetkazmoqda. Tez orada 3 qavatdan iborat, zamonaviy bino qad rostlaydi. Buning uchun 7 milliard soʻmdan ortiq mablagʻ ajratilishi nazarda tutilgan. Yana bir jihati — inshoot toʻliq energiya tejamkor usulda qurilmoqda.

Qishloq faollari gʻurung orasida huddudagi yagona maktabga ilk poydevor qoʻyilganiga ham bir asrga yaqinlashganini aytdi. Kattagina maydonga ega oʻquv muassasasi shu paytgacha qanchadan qancha yoshlarning bilim olishiga xizmat qilgan. Vaqtlar oʻtib, qoʻshimcha oʻquv xonalari barpo etilgan. Joriy yildan boshlab esa, bu yerda ham energiya tejamkor boʻlgan yangi oʻquv binosi qurilishi boshlandi.

Keng koʻlamli bunyodkorlik ishlari qatoriga mahalla binosi ham kiritilgan. Sobir Irisboyevning aytishicha, shu paytgacha “mahalla yetilligi” uchun tayinli joy yoʻq edi. Yangi inshootda barcha shart-sharoitlar yaratilib, ish olib borish uchun qulay boʻladi. Xususan, majmuada mahalla va yoshlar markazi bilan birga aholiga xizmat koʻrsatish obyektlari, taʼlim va sport markazlari, huquqiy maslahatxona hamda aholi dam olish maskani ham joy oladi.

Rosti, tun qorongʻusiga qadar huddudagi ishlarni koʻrib, koʻzimiz quvnadi. Ichki yoʻllar ravon, koʻchalar tartibga keltirilmoqda. Tomorqadan unumli foydalanish uchun kerakli imkoniyatlar yaratilgan. Mahallada ishsiz yurgan kishi yoʻq hisobi. Aholining yashash tarzi yaxshi tomonga oʻzgarayotganini bir koʻrisha anglash mushkul emas. Bundan mahallaning yoshu qarisi birdek mamnun.

Chim mahallasini obod hududga aylantirishni shu yilning oʻzida yakuniga yetkazish nazarda tutilgan. Jumladan, hozir huddudagi 78 ta xonadonning shaharsozlik normalariga mos kelmagan qurilish obyektlari buzilib, tartibga keltirilmoqda. Bundan tashqari, Qarshi — Chim — Shahrisabz yoʻnalishidagi 17 ta hamda mahalladagi Chinorli va Oʻrta chim koʻchasidagi 59 ta xonadonda qayta qurish va taʼmirlash ishlari ketyapti. Shuningdek, dastur doirasida mahallaning kirish qismi obodonlashtirilib, stela oʻrnatiladi. Ichki yoʻllarning 2 kilometri asfalt qilib, yana shuncha oʻlchamda piyodalar yoʻlga ham quriladi. Bundan tashqari, 2 dona transformator, 220 ta beton ustun oʻrnatiladi, 8,4 kilometrga elektr tarmogʻi tortiladi. Suvsozlar esa 2 ta artezian qudugʻini qazib, ariqlarning 3 kilometrini betonlab, yana shuncha masofaga lotok oʻrnatadi.

Shu bilan birga, mahallada joylashgan 48-oilaviy poliklinika tibbiy jihat va mebellar bilan taʼminlanadi. 2-bolalar sport maktabida qurilish va taʼmirlash amalga oshiriladi.

Mahallamizdagi 47 ta tadbirkorlik obyekti shaharsozlik normalari asosida qayta taʼmirlanmoqda, — deydi Sobir Irisboyev. — Qolaversa, kanal boʻyida aholi uchun zamonaviy sayilgoh tashkil etilmoqda. Buning uchun aholi va tadbirkorlarning yordamchi bino inshootlari loyiha asosida qayta qurilib, taʼmirlanmoqda. Shuningdek, mahalla markazida tadbirkor tomonidan yana bitta sayilgoh tashkil etilyapti.

Tuman hokimligi masʼullarning aytishicha, mazkur mahalla obodligi uchun jami 50 milliard soʻmdan ortiq mablagʻ ajratilishi koʻzda tutilgan. Yana bir gap. Qamashi tumanidagi Qorabogʻ ham Yangi Oʻzbekiston qiyofasidagi mahallalar roʻyxatiga kiritilgan. Ushbu hududda ham obodonlashtirish ishlari allaqachon boshlangan. Demak, joriy yil yakunida tumandagi ikki hudud yangicha qiyofaga kiradi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Xorijlik suhbatdosh



“

Mamlakatimizning uzoq yillik investor hamkorlari orasida Xitoy kompaniyalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Jumladan, “Holley technology” korxonasi O‘zbekiston bozoriga birinchilardan bo‘lib kirib kelgan. Bugunga qadar ko‘plab loyihalarni amalga oshirdi. Elektr hisoblagichlar hamda transformatorlar ishlab chiqarish zavodi shular jumlasidan.

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

”

4

JARAYON

2026-yil 17-iyul, 144-son

Soʻnggi yillarda paxtachilik va gʻallachilik sohalarida amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biri davlat buyurtmasi tizimidan bosqichma bosqich voz kechilib, sof bozor iqtisodiyoti munosabatlariga oʻtilganidir.

YANGI OʻZBEKISTON

f

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz_news

Taraqqiyot odimlari

10 MILLION TONNALIK RIZQ, BARAKA XIRMONI

xalqimiz dasturxonini toʻkin qilmoqda

Aktam HAITOV, Oʻzbekiston fermerlari kengashi raisi

Boshlanishi 1-betda

Soha olimlarining ilmiy tavsiyalari, gʻalla ekish va parvarishlashning barcha bosqichlarida tashkil etilgan oʻquv-amaliy seminarlar hamda tabiatning qulay kelishi moʻl hosil yetishtirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Darhaqiqat, agrar sohadagi islohotlarning bosh maqsadi yer va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi samaradorligini oshirish va fermerlarning iqtisodiy barqarorligini taʼminlashdan iboratdir. Zero, iqtisodiy jihatdan barqaror fermerlar qatlamini shakllantirish mamlakat taraqqiyoti va jamiyat barqarorligining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Soʻnggi ikki yil davomida paxtachilik va gʻallachilik sohasida mehnat qilayotgan fermerlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratilib, qator qoʻshimcha yengilliklar va iqtisodiy ragʻbatlantirish choralari joriy etildi.

Avvalo, mahsulot yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan imtiyozli kreditlar boʻyicha tartib-taomillar sezilarli darajada soddalashtirildi. Bu vaqt va boshqa resurslarni tejash, moliyaviy mablagʻlardan samarali foydalanish imkonini bermoqda. Eng muhimi, kredit mablagʻlarining bevosita fermer xoʻjaliklariga ajratilishi ularning iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamladi.

Gʻallachilik sohasida yangi moliyaviy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlari joriy etildi. Endi fermerlar tomonidan yetishtirilgan tovar bugʻdoyni vaqtincha saqlash xarajatlari Qishloq xoʻjaligini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasining tijorat vakili hamda bugʻdoy yetishtiruvchilar oʻrtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq jamgʻarma mablagʻlari hisobidan

qoplab beriladi. Mazkur holat fermerlarning saqlash bilan bogʻliq xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Yana bir muhim yangilikka eʼtibor qarataylik: 2026-yil hosilidan boshlab gʻallani oʻz mablagʻlari yoki tijorat banklari kreditlari hisobidan yetishtirib, uni belgilangan tartibda birja savdolari yoki davlat resursi uchun realizatsiya qilgan qishloq xoʻjaligi korxonalariga mahsulot qiymatining 10 foizi miqdorida subsidiya ajratish tizimi joriy etildi. Ushbu mexanizm, avvalo, gʻalla yetishtiruvchilarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, aylanma mablagʻlarini koʻpaytirish hamda daromadini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, Oʻzbekiston Prezidentining 2026-yil 8-maydagi “Paxta va bugʻdoy yetishtiruvchilarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmoni sohada iqtisodiy ragʻbatlantirish mexanizmlarini yangi bosqichga olib chiqdi, desak aslo mubolagʻa boʻlmaydi. Hujjatga muvofiq, 2026-yil hosilidan boshlab bugʻdoy yetishtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarni hosil yilining 1-avgustiga qadar toʻliq qaytargan qishloq xoʻjaligi korxonalariga ushbu kreditlar boʻyicha toʻlangan foizlarning 4 foiz qismi davlat tomonidan kompensatsiya qilib berilishi belgilandi.

Bu, oʻz navbatida, fermerlarning moliyaviy yukini yengillashtirish, aylanma mablagʻlarini koʻpaytirish hamda keyingi mavsumga puxta tayyorgarlik koʻrish uchun qoʻshimcha iqtisodiy imkoniyat yaratadi.

Koʻp yillardan buyon fermerlarimiz uchun boshogʻriq boʻlib kelgan, asosiy xarajatlaridan biri sanalgan yoqilgʻi taʼminoti boʻyicha ham muhim yengilliklar joriy etildi. Masalan, shu yil 1-apreldan 1-iyulgacha qadar birja savdolari orqali xarid qilingan har bir tonna dizel yoqilgʻisi qiymatining 13 million soʻmdan oshgan qismi uchun, biroq 2 million soʻmdan ortiq boʻlmagan miqdorda respublika byudjeti mablagʻlari hisobidan subsidiya ajratilishi belgilandi.

Mazkur imtiyoz gʻalla yetishtirish tannarxini pasaytirish, agrotexnik tadbirlarni

Yuqori hosildorlikka erishishda fermer xoʻjaliklarini iqtisodiy ragʻbatlantirishning yangi tizimi muhim omil boʻldi. Joriy yilda minglab fermerlarning yuqori hosildorlik koʻrsatkichlariga erishgani ham mazkur islohotlarning samaradorligini yaqqol namoyon etdi.

Dastlabki hisob-kitoblarga koʻra, gʻallachilikda oʻrtacha hosildorlik koʻrsatkichlari boʻyicha mamlakatimiz dunyodagi yetakchi davlatlar qatoridan munosib oʻrin egallamoqda.

Fermerlar uchun yaratilgan qator qoʻshimcha imkoniyatlar samarali natijalarga xizmat qilmoqda. Xususan, ijaraga olingan yer maydonining muayyan qismida almashlab ekish huquqi berilishi, yer soligʻi boʻyicha kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni qoʻllash imkoniyati yaratilishi, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan yengilliklar joriy qilinishi hamda yuqori samaradorlikka erishgan xoʻjaliklarni davlat tomonidan qoʻshimcha ragʻbatlantirish mexanizmlari takomillashtirilishi fermerlarni yanada moʻl hosil olish, yerdan samarali foydalanish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga undamoqda.

Bugungi kunda global iqlim oʻzgarishi va mintaqaviy ekologik sharoit taʼsirida

suv resurslarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Suvning strategik resurs sifatidagi qadri oshib borayotgan bir sharoitda undan oqilona va tejakorlik bilan foydalanish qishloq xoʻjaligining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi.

Shu nuqtayi nazardan, fermerlarda suv resurslariga nisbatan tejakor munosabatni shakllantirishda davlat tomonidan koʻrsatilayotgan moliyaviy qoʻllab-quvvatlash choralari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Tomchilatib va yomgʻirlatib sugʻorish, shuningdek, boshqa suv tejovchi texnologiyalarni joriy etayotgan fermerlarga davlat tomonidan subsidiyalar ajratilayotgani bu boradagi amaliy yordamning muhim koʻrinishidir.

Natijada minglab gektar maydonlarda zamonaviy sugʻorish texnologiyalari joriy etilmoqda. Bu esa suv sarfini qisqartirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va hosildorlikni yanada oshirish imkonini bermoqda.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga koʻra, suv tejovchi texnologiyalarni qoʻllash natijasida ayrim hududlarda hosildorlik 20-30 foizgacha oshgan. Ushbu koʻrsatkichlarga suv resurslari tejalisini ham qoʻshadigan boʻlsak, mazkur texnologiyalarning iqtisodiy va ekologik samarasi yanada yaqqol namoyon boʻladi.

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalar kabi qishloq xoʻjaligida ham raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Bu jarayon fermerlar faoliyatini yengillashtirish, davlat xizmatlarining ochiqligi va tezkorligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega.

Ilgari koʻp vaqt va ortiqcha hujjatbozlikni talab qilgan subsidiyalarni ajratish, imtiyozli kreditlarni rasmiylashtirish, yer maydonlari boʻyicha maʼlumotlar almashinuvi hamda boshqa davlat xizmatlari bugungi kunda elektron platformalar orqali amalga oshirilmoqda. Bu esa ortiqcha qogʻozbozlikni qisqartirish, inson omilini kamaytirish va davlat xizmatlari shaffofligini taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda qishloq xoʻjaligida foydalanilayotgan 4 million gektardan ortiq

yer maydonida ekish va sugʻorish jarayonlari raqamlashtirildi.

Sohada joriy etilgan 30 dan ortiq axborot tizimini yagona platformaga integratsiya qilish orqali fermerlar uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratildi, maʼlumotlarning oʻzaro muvofiqligi va ishonchligi taʼminlanmoqda.

Bundan tashqari, qariyb 100 turdagi raqamli xizmat va servisini yoʻlga qoʻyish, jumladan, robototexnika, uchuvchisiz uchish apparatlari hamda boshqa “aqlli” qurilmalar orqali xizmatlar koʻrsatish tizimi bosqichma bosqich joriy etilmoqda.

Ayni paytda fermer xoʻjaliklari, klasterlar va boshqa qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari oʻzlariga tegishli yer uchastkalarida ekish rejalashtirilgan ekinlar toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni “Raqamli qishloq xoʻjaligi” yagona integratsion platformasiga konturlar kesimida mustaqil ravishda joylashtirish imkoniyatiga ega boʻldi.

Bugun fermerlarimiz nafaqat moʻl va sifatli hosil yetishtirish, balki qishloq xoʻjaligiga zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash hamda qishloq aholisi bandligi va farovonligini yuksaltirishga ham munosib hissa qoʻshmoqda.

Erishilayotgan yutuqlar zamirida, eng avvalo, mehnatkash dehqon va fermerlarning fidokorona mehnati, soha olimlari hamda mutaxassislarning ilmiy asoslangan tavsiyalari, eng muhimi, qishloq xoʻjaligini har tomonlama qoʻllab-quvvatlash borasidagi izchil islohotlar va yaratilayotgan keng imkoniyatlar mujassam.

Ayniqsa, gʻallachilik tarmogʻidagi keng koʻlamli oʻzgarishlar tayan ana shu ezgu maqsadga xizmat qilmoqda. Bugun yurtimiz fermerlari avvalgidan mutlaqo yangi iqtisodiy muhitda faoliyat yuritmoqda. Ular yetishtiriladigan mahsulot turini tanlash, zamonaviy texnologiyalarni qoʻllash, hamkorlarni mustaqil belgilash, mahsulotni erkin sotish va bozor talabidan kelib chiqqan holda ish yuritish imkoniyatiga ega boʻldi. Bu esa fermerning iqtisodiy manfaatdorligini yanada kuchaytirib, sohada raqobat muhitini shakllantirmoqda.

Soʻnggi yillarda paxtachilik va gʻallachilik sohalarida amalga oshirilgan eng muhim islohotlardan biri davlat buyurtmasi tizimidan bosqichma bosqich voz kechilib, sof bozor iqtisodiyoti munosabatlariga oʻtilganidir.

Qishloq xoʻjaligida zamonaviy bozor munosabatlari qaror topishi mahsulot yetishtirish, uni sotish va narx belgilash jarayonlarida davlat buyurtmasidan voz kechib, talab va taklif qonunlari, sogʻlom raqobat hamda erkin dasturkorlik tamoyillariga tayanishni anglatadi. Bu tizim sohada iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sifati yuksalishiga xizmat qilmoqda. Natijada dehqonchilik va fermerlik tobora rentabeli va barqaror biznesga aylanmoqda.

Fermer xoʻjaliklariga yaratilayotgan huquqiy, iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlar ularning tashabbuskorligi va mehnat samaradorligini yanada oshirishga zamin yaratmoqda. Mazkur holat mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan taʼminlash hamda eksport salohiyatini yuksaltirishga yoʻl ochmoqda.

Mirishkor dehqon va fermerlarimizning halol va fidokorona mehnati tufayli xirmonlarimiz donga toʻlib, el dasturxonidan non arimaydi. Yurtimizda fayzu baraka, qishloqlarda obodlik va farovonlik yanada yuksalib, mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshilaveradi.

Mamlakatimiz iqtisodiy hayotida muhim palla hisoblangan Toshkent xalqaro investitsiya forumi oʻziga xos loyiha va muzokaralar maydoni boʻldi. Nufuzli anjumanda Fargʻona viloyati ishbilarmonlar doiralari vakillari ham ishtirok etib, koʻplab istiqbolli kelishuvlarga erishdi, kelgusidagi hamkorlik muhokama qilindi.

Investitsiya iqtisodiyotning drayveri, yuragi sifatida eʼtirof etiladi. Keyingi yillarda bu jarayonni xalqaro meʼyorlarga muvofiq rivojlantirish yoʻlida yaratib berilayotgan sarmoy va imkoniyatlar xorijiy hamda mahalliy ammyoyadorlarni bir maqsad yoʻlida birlashtirdi.

Sherzod YOʻLDOSHEV, Fargʻona viloyati Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi boshligʻi

Joriy yilda viloyat iqtisodiyot tarmoqlariga xorijdan 4 milliard dollardan ortiq investitsiya jalb etish reja qilingan. Bu avvalgi yillardagiga qiyoslanganda bir necha barobar koʻp. Bundan sakkiz-toʻqqiz yil oldin xorijiy investitsiya jalb etish, eksport koʻrsatkichlari borasida bor-yoʻgʻi 500 ming dollarlik marra belgilangan edi. Endilikda bu miqdor hajmi bir milliard dollarlik dovdan oshdi. Sanoat korxonalari 2,8 barobar koʻpayib, 13

mingtaga yetdi. Sanoat, xizmat koʻrsatish, qurilish va qishloq xoʻjaligi sohalarida 1182 ta loyiha ishga tushirilib, 36 mingdan ortiq yangi ish oʻrni yaratildi. Oʻtgan yili eksport geografiyasi 22 ta davlatga kengayib, Oʻzbekiston bozori uchun yangi imkoniyat eshiklari ochildi.

Viloyatimiz investitsiya salohiyatini oshirish, yangi imkoniyatlardan foydalanishda “Qoʻqon” erkin iqtisodiy sanoat zonasining alohida oʻrni bor. Bu yerda qiymati 980 million dollar boʻlgan 147 ta investitsiya loyihasi joylashtirilgan. Oʻtgan davr mobaynida 120 ta sanoat korxonasi tomonidan 3 trillion 904 milliard soʻmlik mahsulot ishlab chiqarilib, 137,9 million dollar qiymatdagi eksportga yoʻnaltirildi. Mazkur korxonalarda jami 11 ming 560 ishchi-xizmatchi faoliyat koʻrsatib keladi. Ayni kunda umumiy qiymati 479,5 million dollar yoki 5 trillion 679 milliard soʻmlik 36 ta yirik loyihada tasdiqlangan tarmoq jadvalariga asosan qurilish-montaj ishlari bajarilyapti. Bu loyihalar ishga tushirilishi hisobiga qoʻshimcha olti mingdan ortiq yangi ish oʻrni ochiladi.

“Qoʻqon texnopark” va “Fargʻona yangi imkoniyatlar” maxsus sanoat zonalarida yuqori texnologiyalar va ilmiy amaliy tadqiqotlar asosida ishlab chiqarish loyihalari amalga oshirilyapti. Bu yerda muhandislik-

kommunikatsiya va yoʻl infratuzilmasini qurish uchun jami 83,2 milliard soʻm ajratilgan. Buning hisobiga 50 mVt quvvatga ega 15,2 kilometr elektr, 11 kilometr gaz, 35 kilometr suv tarmogʻi tortildi hamda 4000 metr kub hajmda suv saqlash inshootlari barpo etildi. 29 kilometrdan iborat avtomobil yoʻllari va 2,9 kilometr temir yoʻl tarmogʻi ishga tushirildi. “Yangi Oʻzbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi doirasida

eksportchi korxonalar har jihatdan qoʻllab-quvvatlanyapti. Ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini rivojlantirish maqsadida Koreya Respublikasining Asan shahrida Fargʻona investitsiya va savdo uyi ochildi. Bu mahalliy mahsulotlarning koreys bozoriga keng kirib borishi hamda ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarni toʻgʻridan toʻgʻri eksport qilish imkoniyatini bermoqda.



Ma’rifatli jamiyatning boqiyiligi ham shunda: u o’z tarixiy merosini bilim, mas’uliyat va ma’naviy jasorat manbaiga aylantira oladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



Mulohaza



TARIXIY MEROS VA DINIY-MA’RIFIY DIPLOMATIYA

Mamlakatimiz mezbonlik qilgan “Islom sivilizatsiyasi: tinchlik, bag’rikenglik va ilm-ma’rifat yo’li” mavzusidagi Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi nihoyasiga yetdi. Keyingi yillarda yurtimizda bu kabi ma’rifiy tadbirlar qiz-tez o’tkazila boshlandi. Agar tarix taqvimiga nazar tashlasak, bir-biridan mazmunan farq qilsa-da, yagona strategik mantiqqa bo’ysunadigan xalqaro tadbirlar zanjiriga guvoh bo’lamiz.

Prezidentimizning bosh roli nimada?

Davlatimiz rahbarining bunday ulkan hodisadagi rolini xolis baholash uchun siyosiy natijalarni ko’rsatishning o’zi yetarli.

Birinchidan, Shavkat Mirziyoyev mazkur siyosatning g’oyaviy tashabbuskori. Prezidentimiz ilgari surayotgan “Jaholatga qarshi ma’rifat” g’oyasining asosiy tamoyillari BMTning “Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” rezolyutsiyasida xalqaro darajadagi siyosiy-huquqiy ifodasini topdi. Bu yondashuv terrorizm va ekstremizmning oqibatlariga emas, ularni oziqlantiradigan barcha omillarga qarshi kurashishni nazarda tutadi.



Ikkinchidan, Prezidentimiz diniy-ma’rifiy diplomatiya institutining buyondorki sifatida o’rtaga chiqdi. Uning tashabbusi bilan Islom sivilizatsiyasi markazi va boshqa ilmiy muassasalar tashkil etilishi, tarixiy majmualar qayta tiklanishi, qo’lyozmalar va ilmiy maktablarga e’tibor yangicha intellektual infratuzilmani shakllantirdi. Uchinchidan, davlatimiz rahbari xalqaro koalitsiyani birlashtiruvchi siyosiy markaz vazifasini bajarmoqda. Forumga ICESCO, Islom olami uyushmasi, turli davlatlarning nufuzli ulamolari, universitetlar, muzeylar va tadqiqot markazlari jalb qilinishi O’zbekistonning “umuminsoniy merosni birgalikda o’rganamiz” degan ochiq pozitsiyaga o’rganini ko’rsatdi.

To’rtinchidan, Prezidentimiz tarixiy merosni milliy o’zlik va zamonaviy taraqqiyotni bog’laydigan siyosiy resurs sifatida ko’rmqda. Bu yerda o’tmishdan kelajak uchun saboq olish g’oyasi bor. Imom Buxoriy merosi manba va haqiqat oldidagi mas’uliyatni, Imom Moturidiy maktabi aql va e’tiqod muvozanatini, Xorazmiy, Beruniy va Ibn Sino an’analari ilming umuminsoniy tabiatini anglatadi. Ular bugungi yoshlarga faqat faxr emas, fikrlash mezonini ham beradi.

Tarixiy meros hech qachon taraqqiyot omiliga o’z-o’zidan aylanmaydi. Buning uchun qo’lyozma ilmiy muomalaga, alomalar xotirasini zamonaviy tadqiqot maktabiga, ziyoratgohlar ma’rifiy va iqtisodiy infratuzilimga, tarixiy xotira esa yosh avlodning tanqidiy tafakkuri va ma’naviy immunitetiga aylanishi kerak. Aslida Prezidentimiz

siyosatining boshqalardan ulkan farq qiladigan jihati ham shunda: merosni shunchaki asrash bilan cheklanmasdan, uni ta’lim, ilm-fan, xalqaro hamkorlik, turizm, nashriyot, raqamlashtirish va jamoat xavfsizligi bilan bog’langan amaliy taraqqiyot resursiga aylantirayotganida.

Faqat biz shunday fikrlayotganimiz yo’q. Davlatimiz rahbari 2017-yili BMT minbarida ilgari surgan tashabbus e’tirof etilib, mazkur qarash Islom sivilizatsiyasi markazi va tadbir orqali amaliy ifoda topgani forum deklaratsiyasida ham alohida qayd etildi. ICESCO bosh direktori, doktor Salim Muhammad al-Malik Prezidentimiz O’zbekistonni islom sivilizatsiyasining global markazi, bilim va sivilizatsion tashabbuslar maydoniga aylantirganini ta’kidladi.

siyosatining shakllanayotgan yangi bir yo’nalishini ifodalovchi tahliliy tushunchadir. Uning diplomatik mexanizmi dinni geosiyosiy raqobat vositasiga aylantirishga emas, balki diniy merosning tinchlik, ilm, axloq va bag’rikenglikka oid mohiyatini ishonchli manbalar bilan mustahkamlab, xalqaro do’slikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

An’anaviy diplomatiya ko’pincha manfaatlar muvozanati, muzokara va bitimlar tilida so’zlaydi. Madaniy diplomatiya san’at, adabiyot va tarix orqali mamlakat haqida ijobiy tasavvur uyg’otadi. Diniy-ma’rifiy diplomatiya esa yanada nozik omilga — insonning e’tiqodi, u muqaddas deb bilgan qadriyatlar va tarixiy xotirasiga tayanadi.

O’zbekistonning tahlillar tufayli ko’zga tashlanayotgan bu yangi modeli islomni zo’ravonlik bilan tenglashtiruvchi tashqi stereotiplarga ilmiy dalil bilan javob berishi, buz’unchi talqinlarga qarshi ma’rifiy maydon yaratishi, turli din va madaniy vakillarini inson qadri, bilim, vijdon ekrinligi, tinchlik va mas’uliyat atrofida birlashtirishi mumkin.

Qolaversa, bu model xavfsizlik bilan insonparvarlikni bir-biriga aslo qarshi qo’ymaydi. Radikallashuvga qarshi kurashga oila, maktab, universitet, mahalla, diniy muassasa, muzey, kutubxona va media ishtirok etadigan keng ijtimoiy jarayon sifatida qaraydi. Tayyor qarashlarni majburan singdirishga emas, balki manbalarni birgalikda o’rganib, umumiy yechim topishga undaydi. Aynan mana shu qarash ushbu forumni shunchaki nomiga o’tkaziladigan tadbirlardan ajratib turadi.

O’zbekistonning bu vazifani o’z zimmasiga olishi tarixiy mantiqqa ham ega. Azaldan bu zaminda islomiy ilmlar, aniq fanlar va falsafa bir-birini inkor etmagan. Bugun ushbu tajribani romantik o’tmish emas, zamonaviy bilim va muloqot instituti sifatida qayta ishlash mumkin. Shunda O’zbekistonning diniy-ma’rifiy diplomatiyasi dunyoning bugungi muammolariga xolis yechim taklif etadigan omilga aylanadi.

Milliy manfaat qayerda ko’rinadi?

Eng avvalo ma’naviy suverenitetda, albatta. Ma’naviy suverenitet xalqning o’z tarixi, dini va qadriyatlarini boshqalarning siyosiy manfaatiga moslab berilgan talqinlar orqali emas, ishonchli ilmiy manbalar asosida anglash qobiliyatidir. Milliy merosini o’zi tadqiq etmagan jamiyat uning ma’nosini begonalardan qabul qiladi. Bu holda ma’naviy suverenitet haqida hech qanday gap bo’lishi mumkin emas.

Yoshlarning ma’naviy va intellektual xavfsizligi masalasini ham unutmazlik lozim. Radikallashuv diniy bilimsizlik, ijtimoiy adolatsizlik, yolg’izlik hissi yuqori muhitda tez rivojlanadi. U yoshlarga juda sodda javob, soxta qahramonlik va tayyor “dushman” taklif qiladi. Ma’rifat esa yoshlarni faqat radikal g’oyadan qaytarmaydi, ularga savol berish, manbani tekshirish, turli qarashlarga toqatlilik va oqibatni o’ylash qobiliyatini ham tuhfa etadi.

Ekstremistik mafkura jamiyatda birdan portlamaydi, u avval odamlarning bir-biriga nisbatan ishonchini poymol qiladi, dindor va dinsiz, turli konfessiya va millatlar, turli avlodlar va ijtimoiy qatamlar o’rtasida “baland devor quradi”. Unga qarshi diniy-ma’rifiy diplomatiya shakllantiradigan ijtimoiy ishonch va milliy birlik omili samarali ta’sir ko’rsatishi mumkin.

O’zbekistonning global muloqotdagi yangi modeli

Diniy-ma’rifiy diplomatiya so’zi huquqiy atama emas, balki O’zbekiston tashqi



**Habibullo SADIBAQOSEV,
O’zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi birinchi prorektori,
siyosiy fanlar doktori, professor v.b.**

Yuqorida sanalganlardan tashqari, yana bir muhim jihat O’zbekistonning xalqaro mavqei masalasidir. Milliy-tarixiy ilmiy merosni ochiq tarzda jahon ahliga taqdim etish mamlakatni faqat tarixiy obidalar yurtiga emas, global muammolarga ma’rifiy yechim taklif etayotgan intellektual davlatga aylantiradi. Aslida, bu “yumshoq kuch”ning ishonch va bilimga asoslangan shaklidir. U ilmiy sheriklik, ta’lim almashinuvi, ziyorat turizmi, muzey va nashriyot loyihalari, yangi tadqiqot va ish o’rinlari uchun imkoniyat ochadi. Xalqqa o’tmish bilan faxrlanishnigina emas, o’tmish oldida mas’uliyat hissini ham beradi.

Geoma’naviy tahdidga ma’rifiy javob

Geoma’naviy tahdid muayyan hududdagi din, madaniyat, ta’lim va axborotdan foydalanib, jamiyat qadriyatlarini, milliy o’zligi va ichki ishonchini muayyan siyosiy maqsadga bo’ysundirishga qaratilgan transmilliy ta’sir bo’lib, diniy-ma’rifiy diplomatiya bu tahdidga munosib javobdir.

Shu ma’noda, O’zbekiston Prezidentining tashabbuslari vositasida jahon ahliga yo’llanayotgan mujda namoyon bo’ladi. Uni bir jumlagi jamlab, bunday bayon etish mumkin: agar ma’rifat tarafdorlari birlasha, asosiy qadriyatlarda hamfikr bo’lsa va fitnalardan bir-birini o’z vaqtda ogohlantirishdan erinmasa, hech bir radikal g’oya yoki ekstremistik qarash bizi osonlikcha mahv eta olmaydi. Bu Prezidentimizning BMTdagi ezgu tashabbusi, “Jaholatga qarshi ma’rifat” konsepsiyasi, tashkil etgan ilmiy muassasalar, forumlar oldiga qo’ygan maqsadi va Islom sivilizatsiyasi I Xalqaro forumi deklaratsiyasidan chiqqan siyosiy xulosa.

Forumning eng katta natijasi O’zbekistonni zamonaviy taraqqiyot va global muloqotga ochiq davlat sifatida namoyon etganidir. Bu hodisada davlatimiz rahbarining bosh roli g’oyani xalqaro minbarga olib chiqqani, uni institutlar bilan mustahkamlagan va jahondagi ko’plab hamkorlarni umumiy maqsad atrofida birlashtira olganida ko’rinadi.

Bu siyosat xalqimizga o’zligini ishonchli manbalar asosida anglash, ajdodlar merosini bugungi hayot bilan bog’lash, yoshlarni yot va buz’unchi talqinlardan asrash imkonini beradi. Vatan uchun u ma’naviy suverenitet, jamiyat barqarorligi va xalqaro nufuz manbaidir. Jahon ilm ahli uchun yangi manbalar, tadqiqotlar va teng sheriklik uchun ochilgan imkon eshigidir.

Ma’rifatli jamiyatning boqiyiligi ham shunda: u o’z tarixiy merosini bilim, mas’uliyat va ma’naviy jasorat manbaiga aylantira oladi.

“Yangi O’zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:
**O’zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo’lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo’limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro’yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-746.
29609 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog’oz bichimi A2.**
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko’chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro’ziyev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko’chasi, 85-uy